



ALEKSANDR FAYNBERG IJODI VA FALSAFIY TAHLILI

Norboyeva Zuhraxon Alijon qizi

alidjanovnaaa999@email.com

O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti, Ingliz filologiyasi fakulteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada taniqli shoir va tarjimon Aleksandr Faynbergning hayoti va ijodiy merosi tahlil qilinadi. Shoirning falsafiy qarashlari, she'riyatining asosiy yo'nalishlari hamda tarjima san'atidagi hissasi ochib beriladi. Ayniqsa, uning "Bu tovushni angla" she'ri misolida inson ruhiyati, tabiat va hayot falsafasi o'rta sidagi bog'liqlik tahlil qilinadi. Maqola davomida shoir ijodining o'ziga xos jihatlari, badiiy obrazlari va uning o'zbek adabiyotiga qo'shgan hissasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Aleksandr Faynberg, she'riyat, tarjima, o'zbek adabiyoti, rus adabiyoti, falsafiy she'r, badiiy tahlil, adabiy meros.

Agar adabiyotni ulkan dengiz deb tasavvur qilsak, undagi har bir ijodkor bu dengizning betakror to'lqinlaridir. Har bir to'lqin o'ziga xos bo'lib, inson qalbiga ilhom baxsh etadi, uning ruhiyatiga singib boradi. Adabiyot ana shunday kuchli va ulkan dengiz bo'lib, unda yozuvchi, shoir, dramaturg va tarjimonlarning asarlari inson tafakkurini yuksaltiradi va jamiyatning madaniy-ma'naviy taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shadi. Ushbu adabiy dengizning qudratli to'lqinlaridan biri bo'lmish Aleksandr Faynberg o'zining betakror she'rlari, teran falsafiy qarashlari va inson ruhiyatini chuqur aks ettirish mahorati bilan ajralib turadi. Rus tilida ijod qilgan bo'lsa-da, qalbi o'zbek bo'lgan ushbu shoirning she'rlari adabiyotimizni yanada boyitib, o'quvchilarga o'zgacha zavq bag'ishlamoqda.

Aleksandr Arkadyevich Faynberg 1939-yil 2-noyabr kuni Toshkent shahrida tavallud topgan. Uning ota-onasi Novosibirskdan Toshkentga ko'chib kelgan



bo‘lib, shoirning bolaligi Ikkinchı Jahon urushining og‘ir yillariga to‘g‘ri kelgan. Yoshligida adabiyotga qiziqib, she’riyat bilan shug‘ullangan. U Toshkent topografiya texnikumida tahsil olgan, so‘ngra harbiy xizmatni o‘tash uchun Tojikistonga yo‘l olgan. Harbiy xizmatdan qaytgach, u Toshkent davlat universitetining sirtqi filologiya fakultetida jurnalistika yo‘nalishida tahsil olib, o‘z ijodini yanada rivojlantirdi. Uning ilk she’rlari nashr etilishi bilan adabiyot muhitida e’tirof etila boshladi. Uning o‘ndan ortiq she’riy to‘plamlari Toshkent, Moskva va Sankt-Peterburgda nashr etilgan. Shoir qalamiga mansub yettita badiiy filmlar stsenariysi o‘ziga xosligi va hayotiyligi bilan ajralib turadi. Yigirmadan ziyod multfilmlar, nasriy asarlar muallifi. Bu asarlarga o‘zbek o‘quvchilarining qiziqishi ham tobora ortib bormoqda. Aleksandr Faynberg katta tarjimon. U rusiyabon kitobxonlarga ko‘plab o‘zbek shoirlarining ijodini ochib berdi. Moskvada O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidovning "Ruhlar isyoni" poemasi, Toshkentda "Oqqushlar galasi" nomli o‘zbek shoirlari ijodidan qilingan tarjimalar jamlanmasi nashr etildi. Taniqli shoirning o‘zbek tiliga o‘girilgan she’rlari "Chig‘ir" kitobida o‘quvchilar qo‘liga borib yetdi. O‘zbekiston xalq shoiri, Kinematografiya uyushmasi a’zosi Aleksandr Faynberg Rossiya Prezidenti Farmoni bilan Rossiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi madaniy aloqalarga munosib hissa qo‘sghanligi uchun Pushkin medali bilan taqdirlangan (2009). Shoir 2009 yilda Toshkent shahrida vafot etdi.

Shoirning ijodi sermahsul va keng ko‘lamli. Uning she’rlarida rang-baranglik, falsafiylik, teranlik, tuyg‘ular tiniqligi yarqirab turadi. Shoir so‘zni chuqur his etadi, bu hisga o‘quvchini ham hamroh qiladi. U O‘zbekistonda yashadi va ijod qildi. Bu yurtning havosi, osmoni, tuprog‘i, eli, bir so‘z bilan aytganda, butun borlig‘i shoirga she’r qadar, qalb qadar aziz. Bu shoir satrlarining, asarlarining haroratida bor bo‘yi bilan ko‘rinadi, bo‘ylari nafasimizga uriladi. Faynbergning “Bu tovushni angla” she’ri inson va tabiat uyg‘unligi, hayotning o‘tkinchiligi va vaqtning cheksiz oqimiga bag‘ishlangan falsafiy she’rlardan biridir. Shoir ushbu



she’rda tovush obrazidan foydalanib, inson yuragidagi ehtiros va iztiroblarni ifodalagan:

Bu tovushni angla – qanotlar sozi,

Yerostidan to‘lqinlanib bo‘ylaydi.

Sargardon qushlarning tungi parvozi,

Oy nuriga bo‘zlarini iylaydi.

She’r boshidanoq shoir qushlarning tungi parvozi va tovushning yer ostidan to‘lqinlanib kelishini tasvirlab, hayotning davomiyligi hamda inson hissiyotlarining tabiat bilan uyg‘unligini eslatadi. Shoirning bunday yondashuvi inson qalbida vaqtning cheksiz oqimi va tabiatning abadiyligini his qilishga undaydi.

Erib bitmasidan ovozni ilg‘a,

Bu – biz yer tubiga sochgan baxtu g‘am.

Quchib o‘tayotir ko‘zlarining ilg‘ab,

Enayotir kuzning vidosiga ham.

Bu misralarda inson hayotining orzu va armonlari aks ettirilgan. Shoir inson tomonidan yerga sochilgan baxt va g‘amlarni tabiat bilan bog‘lab, hayotning o‘tkinchiligi va inson taqdirining mavhumligini ta’kidlaydi.

Hali anglab yetmay bir – birimizni

Qish kelar, qor bosar bor sirimizni.



She’rning yakuniy qismi insonlar orasidagi tushunmovchiliklar va vaqtning shafqatsizligini aks ettiradi. Qor timsoli bu yerda hayotning muqarrar ravishda o‘tib ketishini anglatadi. Shoир insonlarning bir-birini tushunishga ulgura olmasligidan afsuslanadi.

Aleksandr Faynberg ijodi o‘zining teran mazmuni, inson ruhiyatini nozik ifodalashi va falsafiy mushohadalari bilan adabiyot ixlosmandlarini maftun etadi. Uning she’rlari, tarjimalari va ssenariylari nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham dolzarbligini yo‘qotmagan. Shoир ijodining asosi hayot haqiqatlarini o‘ziga xos badiiy uslubda aks ettirish va o‘quvchini mushohadaga chorlashdir. Faynberg she’riyatida inson qalbi, tabiat va hayot o‘rtasidagi uyg‘unlik ustuvor mavzu sifatida namoyon bo‘ladi. Uning ijodi o‘zbek va rus adabiyoti o‘rtasidagi mustahkam ko‘prik bo‘lib, madaniy merosimizni boyitishda muhim ahamiyat kasb etadi. Faynberg ijodini o‘rganish faqat uning she’rlarini o‘qish emas, balki inson ruhiy olamini, hayot falsafasini anglash demakdir. Shoirga bo‘lgan hurmatimiz cheksiz, uning she’rlari esa bizni doimiy ravishda ilhomlantirib kelaveradi.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Uzbek Cinematography Union Archives (2015). “*Contributions of Alexander Feinberg*”. Tashkent: National Archives Press.
2. O’ralov, U. (2022). “Pedagog respublika ilmiy jurnali”. O‘zbek xalqining chin do‘sti, tarjimon, shoир- Aleksandr Faynberg, 4, 745-746.
3. Faynberg, A. (2007). “*Chigir*”. Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti.
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>
5. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg